





QASHQADARYO
VILOYATINING
CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASI



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 863,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 85,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,1 marttaga), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 601,8 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 103,6 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 175,9 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga o'sish kuzatildi) tashkil etdi.

HUDUDLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mlrd. so'm)






**CHAKANA
SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK
SUB'EKTLARI-
NING HAJMI
VA O'SISH
SUR'ATLARI**
(mlrd. so'm, foiz)

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiylabirorlik	%
Qashqadaryo viloyati	1863,2	105,8	85,5	2,1 m.	1777,7	103,4
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	76,5	111,0	1,8	2,3 m.	74,7	102,0
Dehqonobod	91,4	107,7	0,8	11,6 m.	90,6	104,4
Qamashi	136,7	103,4	1,6	2,4 m.	135,1	102,9
Qarshi	73,4	105,1	1,1	4,8 m.	72,3	102,7
Koson	183,0	104,0	1,2	11,5 m.	181,8	103,9
Kitob	137,9	103,8	1,5	3,8 m.	136,4	103,3
Mirishkor	76,2	104,5	0,7	19,0 m.	75,5	102,6
Muborak	57,3	104,3	1,6	12,5 m.	55,7	101,4
Nishon	71,9	103,5	0,7	8,1 m.	71,2	101,5
Kasbi	77,7	102,6	1,1	178,8	76,6	104,9
Chiroqchi	187,3	102,2	2,3	3,5 m.	185,0	104,1
Shahrisabz	70,3	106,0	7,5	4,4 m.	62,8	109,0
Yakkabog'	106,5	105,1	3,3	4,9 m.	103,3	103,1
Qarshi sh.	411,8	101,2	58,0	63,6	353,8	102,4
Shahrisabz sh.	105,2	106,2	2,3	20,2 m.	102,9	105,6

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod, Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Yakkabog' va Qarshi tumanlarida qayd etildi.


**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(o'sish sur'atlari)






**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi va o'sish
sur'atlari)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ga o'sdi va 85,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 777,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oyilariga nisbatan 3,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,0 % ga teng bo'ldi hamda shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 175,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1,6 foizga o'sish kuzatildi.


**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi mlrd. so'm)





**CHAKANA SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI
(foizda)**


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Koson (99,4 %), Dehqonobod (99,1 %), Mirishkor (99,0 %), Kitob (98,9 %) va Qamashi (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



 Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (14,1 %), Shahrisabz (10,7 %) va Yakkabog' tumanlarida (3,1 %) kuzatilgan.

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI ulushi,
foizda**





**MULKCHILIK
SHAKLLARI
BO'YICHA
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI**
(mlrd. so'm)

2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 863,2 mlrd. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 5,8 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 1 852,0 mlrd. so'm nodavlat mulki (99,4 %) hamda 11,2 mlrd. so'm (0,6 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

	Jami	Nodavlat mulk	Davlat mulki
Qashqadaryo viloyati	1863,2	1852,0	11,2
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	76,5	76,1	0,4
Dehqonobod	91,4	90,8	0,6
Qamashi	136,7	135,9	0,8
Qarshi	73,4	72,9	0,5
Koson	183,0	181,9	1,1
Kitob	137,9	137,1	0,8
Mirishkor	76,2	75,7	0,5
Muborak	57,3	57,0	0,3
Nishon	71,9	71,5	0,4
Kasbi	77,7	77,2	0,5
Chiroqchi	187,3	186,2	1,1
Shahrisabz	70,3	69,9	0,4
Yakkabog'	106,5	105,8	0,7
Qarshi sh.	411,8	409,4	2,4
Shahrisabz sh.	105,3	104,6	0,7


**QASHQADARYO
VILOYATI
BO`YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(ming so`m)
VA O`SISH
SUR`ATLARI
(foizda)**

2020-yil yanvar-fevral oylarida o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 573,9 ming so`m (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 3,7 % ga o`sdi) va viloyatning Kasbi va Shaxrisabz hududlaridan tashqari aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko`rsatkichlari o`sish sur`atlari kuzatildi.

	Hajm, ming so`m	O`sish sur`ati, %
Qashqadaryo viloyati	573,9	103,7
<i>hududlar:</i>		
G`uzor	380,2	101,4
Dehqonobod	629,0	102,9
Qamashi	510,4	101,9
Qarshi	299,9	101,5
Koson	650,5	102,3
Kitob	527,4	102,4
Mirishkor	645,5	101,5
Muborak	669,1	100,5
Nishon	478,1	99,8
Kasbi	400,9	103,9
Chiroqchi	462,5	102,4
Shahrisabz	319,5	99,6
Yakkabog`	408,6	103,9
Qarshi sh.	1509,1	109,4
Shahrisabz sh.	761,2	105,8

Ushbu ko`rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Qarshi shahri (1509,1 ming so`m), Shahrisabz shahri (761,2 ming so`m) va Muborak (669,1 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

QASHQADARYO
VILOYATI
HUDUDLARI
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)




2020-yilning yanvar-fevral oyilarida mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 % ni tashkil etib, 34 115,9 mln. so'mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % o'sdi. Bundan jami savdo aylanmasining 93,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi

Eng yuqori savdo aylanmasi hajmlari


Eng quyi savdo aylanmasi hajmlari

HUDUDLAR
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)




Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko'rsatkichi Qarshi shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 32,8 %) to'g'ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Qamashi (9,2 %), Kitob (9,9 %) va Muborak (7,1 %) tumanlarida kuzatildi.

MULKCHILIK
SHAKLI
BO'YICHA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
ULUSHI, foizda



2019-yilning mos davri bilan solishtirganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 % dan 1,8 % ga oshgan.



**MULKCHILIK
SHAKLLARI
BO'YICHA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulk	Davlat mulki
Qashqadaryo viloyati	3415,9	34054,9	61,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	1432,2	1432,2	-
Dehqonobod	612,8	612,8	-
Qamashi	3127,0	3127,0	-
Qarshi	2068,0	2068,0	-
Koson	955,4	955,4	-
Kitob	3379,3	3379,3	-
Mirishkor	1901,9	1901,9	-
Muborak	2415,7	2415,7	-
Nishon	999,8	999,8	-
Kasbi	452,9	452,9	-
Chiroqchi	1810,7	1810,7	-
Shahrisabz	458,2	458,2	-
Yakkabog'	1542,6	1542,6	-
Qarshi sh.	11194,7	11133,7	61,0
Shahrisabz sh.	1764,7	1764,7	-

2020-yil yanvar-fevral oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi 34 115,9 mln. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 3,3 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 34 054,9 mln. so'm nodavlat mulki (98,2 %) hamda 61,0 mln. so'm (1,8 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Viloyatda davlat ulushi Qarshi shahrida (0,5 %) to'g'ri kelgan bo'lsa boshqa tumanlarda mulkiy shakli bo'yicha davlat ulushlari mavjud emas.



**QASHQADARYO
VILOYATING
ULGURJI
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI**

**Ulgurji savdo
tovar aylanmasi**

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 333917,9 mln. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **14,7 %** ga kamayish kuzatildi.

Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **34872,4 mln. so'mni** tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **66,8 %** kamayish kuzatildi.
10,4 %

Kichik korxonalar


Savdo hajmi:
151021,2 mln. so'm
O'sish sur'ati: 103,8 %
44,3 %

Mikrofimlar

Savdo hajmi:
148024,3 mln. so'm
O'sish sur'ati: 105,0 %
45,3 %

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, 299045,5 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 4,4 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 89,6 % ni tashkil qilmoqda.

**YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI
ULUSHI, %**






HUDDDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mln. so'm) VA O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O'SISH SUR'ATLARI (foizda)	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
	Qashqadaryo viloyati	333917,9	85,3	34872,4	33,2	299045,5
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	2123,1	104,8	-	-	2123,1	104,8
Dehqonobod	863,0	104,8	-	-	863,0	104,8
Qamashi	6329,6	138,9	1571,7	-	4757,9	104,4
Qarshi	17429,8	104,8	-	-	17429,8	104,8
Koson	17752,8	104,9	-	-	17752,8	104,9
Kitob	17851,0	104,6	-	-	17851,0	104,6
Mirishkor	7790,6	154,7	2527,2	-	5263,4	104,5
Muborak	5552,9	156,5	2775,3	3,1 m.	2777,6	104,9
Nishon	19035,2	115,3	1879,8	75,2 m.	17155,3	103,9
Kasbi	9095,8	2,1 m.	4444,6	-	4651,1	105,0
Chiroqchi	9135,1	104,9	-	-	9135,1	105,0
Shahrisabz	3991,3	104,5	63,4	124,3	3928,0	104,2
Yakkabog'	8311,4	105,3	51,1	-	8260,3	104,7
Qarshi sh.	186937,4	71,2	21417,4	20,6	165520,0	104,3
Shahrisabz sh.	21719,1	104,8	142,0	187,4	21577,1	104,5

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Nishon (75,2 martaga), Muborak (3,1 martaga) va Shahrisabz sh. (187,4%) tumanlarida o'sish kuzatildi.



**HUDUDLAR
KESIMIDA
ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI-
NING ULUSHI, %**

Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori ulush Qarshi shahar 56,0 %, Shahrisabz shahar 6,5 %, Nishon 5,7 %, Kitob 5,3 % tumanlarida qayd etildi.



Ulgurji tovar aylanmasida 2020-yilning yanvar-fevralida eng kam ulush Dehqonobod (0,3 %), G'uzor (0,6 %), Shahrisabz (1,2 %) va Muborak tumanlarida (1,8 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-83-91**